

## XALQ BAXSHISI ERGASH JUMANBULBUL O'G'LI HAYOTI VA IJODI HAQIDA

**Erkinova Musharraf Abduhakim qizi**

Samarqand davlat universiteti Lingvistika (o'zbek tili)  
yo'nalishi magistranti

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o'zbek xalqining yetuk namoyondalaridan biri, baxshichilik san'atining yirik vakili Ergash Jumanbulbul o'g'li ijodiga bir nazar solgan holda ba'zi fikrlar umumlashtirildi. Shoirning ijodi va mashaqqatli hayot yo'li haqida qisqa fikrlar keltirildi.

**Kalit so'zlar:** baxshi, baxshichilik, doston, jirov, do'mbira, Hodi Zarif, Bulung'ur maktabi, Qo'rg'on maktabi, "Bulbul taronalari" to'plami.

## THE PUBLIC GRIOT, ERGASH JUMANBULBUL UGLI'S LIFE AND WORK

### ABSTRACT

In this article, one of the mature representatives of the Uzbek people, a major representative of the art of baksheesh, Ergash Jumanbulbul's son, summarized some thoughts. Brief thoughts about the poet's work and difficult life path were given.

**Keywords:** griot, clairvoyant powers, epic, jirov, dombira, Hodi Zarif, Bulungur school, Qurgon school, "Bulbul taronalari" collection.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning shunday deydi: "Insoniyat yaratgan bebaho madaniyat durdonalari eng avvalo har qaysi millatning folklor san'atida mujassam topgani hammamizga yaxshi ma'lum. Turli xalqlarning milliy o'zligini, ularning tili va hayot tarzini, an'ana va urf-odatlarini ifoda etadigan baxshichilik san'ati umumbashariy madaniyatning uzviy qismi sifatida barchamiz uchun qadrlidir".[1,1-3] Xalq og'zaki badiiy ijodining yuksak professional san'at turlaridan biri bu doston va dostonchilik bo'lib, uning paydo bo'lishi va taraqqiy etishi baxshilar faoliyati bilan bog'liq. Doston o'zbek xalqining qadimgi ma'naviy-madaniy va badiiy merosi, durdonasi hisoblanadi va uning asosini xalq hayoti va turmushi, orzu-umidlari, g'am-anduxlari tashkil etadi. "Doston" so'zi qissa, hikoya sarguzasht kabi ma'nolarni anglatadi. Adabiy atama sifatida u xalq og'zaki ijodining katta hajmli epik asarlar sirasiga kiradi. Doston juda ulkan va murakkab, noyob xazina bo'lib, uning

yaratilishi va sayqal topishida ajdodlarning juda katta o'rnini bor. O'zbekistonda xalq dostonchiligi, shuningdek, epik musiqa hikoya, doston janri deb nomlangan o'zining nasriy va nazmiy unsurlarini musiqa cholg'usi jo'rnavozligida qamrab olganligi bilan ajralib turadi. Dostonlarning yuzaga kelishida, saqlanib va rivoj olishida ijrochi baxshi, dostonchi, shoir, jirov, yuzboshilar muhim o'rin egallaydi. Baxshi cholg'u chertganda sozanda, she'riy parchalarni kuyga solib aytganda xonanda, matnlarni bir zumda to'qib ketadigan shoir, dostondagi hikoya parchalarini yoddan o'qiydigan so'z ustasi, harakat va mimika orqali ifodalovchi aktyor vazifasini ham bajaradi. Doston ijrochisini turli hududlarda turlicha nomlashadi. Xorazmda dostonchi, baxshi yoki xalfa; Qashqadaryo va Surxondaryoda yuzboshi, baxshi, shoir; Samarqandda baxshi, Xo'jand (Tojikistonda) va O'sh (Qirg'izistonda) viloyatlarida – soqiy yoki azanda; Farg'ona vodiysida – baxshi yoki sannovchi, Qoraqalpog'istonda – baksi va jirov deb aytishgan. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da baxshi atamasining uch xil izohi keltirib o'tilgan. 1) Xalq qo'shiqlari va dostonlarni yoddan kuylovchi shoir, oqin; 2) Irim-sirimlar qilib, duolar o'qib, dam solib davolovchi tabib; 3) Buxoro xonligida qurilish uchun belgilangan mablag'larning hisob-kitobini nazorat qiluvchi lavozimdagi kishi [2,260]

Ana shunday baxshichilik san'atini yetuk namoyondasi, Samaranddagi yirik baxshichilik maktablari asoschilaridan biri bu Ergash Jumanbulbul o'g'li hisoblanadi. Ergash Jumanbulbul o'g'li 1868-yilda hozirgi Samarqand viloyati Qo'shrabot tumani Qo'rg'on qishlog'ida dehqon-dostonchi oilasida tug'ilgan. Uning yetti otabobosigacha, shuningdek, amaki va momolari dostonchi shoir o'tgan, jumladan, Yodgor, Lafas, Mulla Tosh, Mulla Xolmurod, Jumanbulbul, Tilla kampir, Sulton kampir, Jossoq, Yorlaqab va boshqalar XVII-XIX asrlarning taniqli dostonchilari bo'lganlar. Ijodkorning ulkan shoir-dostonchi bo'lib yetishishida oilasi va qishlog'idagi, ya'ni Qo'rg'on dostonchilik maktabining boy adabiy muhit katta rol o'ynagan. Dostonchilik ta'limini otasi Jumanbulbuldan olgan. Aslida savodsiz bo'lgan Jumanbulbul o'z o'g'li Ergashjonning o'qib o'rganishi va bilim olishiga katta e'tibor bergan. 1884-1886-yillarda Buxoro madrasalaridan birida o'qib, fors tilini o'rgangan, arab tili bilan tanishgan, husnixat mashq qilgan. Navoiy, Fuzuliy, Hofiz, Bedil, Mashrab, Mahtumquli asarlarini mutolaa etgan. Biroq moddiy qiyinchilik va 1886-yilda otasining vafoti tufayli o'qishni davom ettira olmagan. Shundan so'ng qishlog'iga qaytib, mustaqil o'qish, dostonchilikda mahoratini oshirish bilan shug'ullangan va ma'lum muddat maktabdagi ustozi va qaynotasi O'tamurod xatibning yordami bilan dehqonlardan kafsani yig'uvchi bo'lib faoliyat yuritgan. 1887-1889-yillarda Ergash Buxoro amirligiga qarashli Nurota bekligining amlokdorlaridan biri Qo'zibekka mirza kotib bo'lib ishlay boshlagan.

O'lkada boshlangan ocharchilik, chigirtka va vabo tarqalishi natijasida shoirning yaxshigina dostonchi bo'lib yetishayotgan ukalari Abduxalil va Abdujalillar, singillari

va farzandlari birma-bir vafot etadi. Bunday g'am-alam, tashvishda qolgan shoir kuylashni ham, ijodni ham tashlab, bir necha yillar darbadarlikda hayot kechirgan. Biroz vaqtdan so'ng Bulung'ur, G'allaorol, Urgut tumanlari, Jizzax va Panjakent atrofida joylashgan qishloqlarda tabiblik, qissaxonlik, she'rxonlik qilib yuradi, ba'zan esa dostonlar ham kuylaydi. Bir qancha vaqtdan so'ng 1923-yilda qishlog'iga qaytishga qaror qiladi va 1924-yil Qorakisa qishlog'ida bir xonali maktab ochadi. Ushbu maktabda o'zining ijod sirlarini shogirdlariga beminnat o'rgata boshlaydi. Shundan so'ng 1925-yilda Samarqandga keladi va 1926-1928-yillarda Bulung'ur tumani Qirqshodi qishlog'ida Po'lkan shoir, Fozil Yo'ldosh o'g'li bilan birgalikda yod bilgan dostonlarini yozdirish va o'zi yozib qoldirish bilan shug'ullangan. 1929-1936-yillarda u o'z qishlog'ida, asosan, dehqonchilik ishlari bilan mashg'ul bo'lgan va dostonchilikda shogirdlar yetishtirishni davom ettirgan. 1936-yilda Toshkentga kelib, 1937-yil aprelgacha folklorshunos Hodi Zarifov uyida yashagan. 1937-yil aprel oxirlarida qishlog'iga qaytib, nevarasi Abdug'anining qo'lida Pastqo'shtamg'ali qishlog'ida vafot etgan.

Ergash Jumanbulbul o'g'lining Abdunabi, Abduvohid va Zarbuvi ismli farzandlari bo'lgan. Lekin ikki o'g'lidan avlodlar qolmagan. O'tgan asrning boshlarida ular yashagan hududda vabo tarqalib, ko'pchilik qatori baxshining ana shu ikki o'g'il farzandlari ham dunyoni erta tark etgan. Faqat boshqa qishloqqa kelin bo'lib tushgan Zarbuvi ismli qizigina omon qolgan. Zarbuvi Ergash qizining ikki farzandi Abdug'ani Turdimov va Oliya bibi Nurboyevaning bugun Nurotada, Toshkentda, Sirdaryoda va respublikamizning boshqa hududlarida yashayotgan (yashagan)farzandlari va nabiralaridir. Ulardan Abdusaid Nurboyev respublikamizning taniqli jurnalistlaridan biri hisoblanadi, Shomirza Turdimov esa filologiya fanlari doktori, Jamoliddin Turdimov esa filologiya fanlari nomzodidir. Marhum Shukur Nurboyev ham jurnalist bo'lib faoliyat yuritgan, u Navoiy viloyati teleradiokompaniyasiga rahbar bo'lib ishlagan. Baxshining yana bir evaralaridan biri rahmatli Shoir Nurboyeva ham jurnalistlik faoliyati bilan shug'ullangan.

Ergash Jumanbulbul o'g'lining ijodiy merosi boy va rangbarangdir. Shoir "Kuntug'mish", "Yakka Ahmad", "Alibek bilan Bolibek", "Dalli", "Ravshan", "Qunduz bilan Yulduz", "Xushkeldi", "Xoldorxon", "Qiz Jibek", "Go'ro'g'lining tug'ilishi", "Hasanxon", "Avazxon", "Avazning Farangga safari", "Nurali", "Xiromon" ("Jahongir"), "Alpomish", "Yusuf bilan Ahmad", "Tulumbiy", "Qironxon", "Qumri", "Oshiq G'arib", "Vomiq bilan Uzro", "Varqa bilan Gulshoh", "Mahtumquli" kabi 30 ga yaqin dostonlarni, juda ko'p termalarni yod bilgan. Bulardan dastlabki 9 ta doston, "Oysuluv" dostonining mazmuni, ko'pgina an'anaviy va zamonaviy termalar, o'zidan avval o'tgan baxshilar va dostonchilik san'ati haqida ma'lumotlar uning o'zidan yozib olingan. Ergash Jumanbulbul o'g'li xalq

dostonlarining barcha janrlaridan namunalarni yoddan bilgan. Dostonlarning g'oyaviyligi, xalqchilligi, badiiy go'zalligi va tarbiyaviyligi uchun kurashgan.

Shoir an'anaviy doston va termalarni kuylab kelish bilan birga o'zi ham barakali ijod qilgan. Uning "Tarjimai hol" dostoni, "Eshon", "Keldim", "Toshkent ta'rifida", "Tursunoy", "Oxunboboyev", "G'ozim Olim", "Otajon Hoshim", "Shoirlarga rahbar Hodi", "Asov qizlar", "Bir hafta xo'p bo'dsi yog'in", "Qizil" kabi termalari bo'lgan.

Shoirning ijodiy merosi keng miqyosda o'rganilmoqda, xususan, u haqida kitoblar nashr ettirilgan, hujjatli film yaratilgan. 1972-yil may oyida shoir tavalludining 100 yilligi keng nishonlandi. Nurota tumani markazida unga byust o'rnatildi. Qo'rg'on qishlog'ida unga atab maqbara, haykal hamda uy muzeyi tashkil etilgan. Bundan tashqari, Samarqand shahrida Ergash shoir, Islom shoir, Po'ltan shoir va Fozil Yo'ldosh o'g'liga kompleks haykal o'rnatilgan. Nurota tumanida bog', Qo'shrabot tumanidagi maktab, Toshkent va Samarqand shahrilarida ko'chalarga shoir nomi berilgan.

O'zbek folklorshunosligining nashr etish sohasidagi yana bir muhim jiddiy ishlardan biri bu – Ergash Jumanbulbul o'g'lining o'zbek tilidagi besh tomlik "Bulbul taronalari" (1971-1973) va rus tilidagi uch tomlik "Pesni Bulbulya" (1976-1977) bo'ldi. Bir baxshining Ergash Jumanbulbul o'g'lidan yozib olingan dostonlar qo'lyozmalarini o'rganishi natijasida yuzaga kelgan ushbu kulliyot jahon xalqlari folklorshunosligi amaliyotida misli ko'rilmagan o'ziga xos dadil tajriba bo'lib, bunday ish O'zbekistonda birinchi marta amalga oshirildi va uning Hodi Zarif boshchiligidagi Sh.Shoabdurahmonov, M.Afzalov, M.Alaviya, T.Mirzayev, Z.Husainovalardan iborat jamoa bu xizmatlari uchun Beruniy nomidagi O'zbekiston Davlat mukofotiga sazovor bo'ldilar. To'plangan ushbu tajribalar asosida o'zbek xalq maqollarining 2 tomlik (1987-1988) akademik nashri, "Go'ro'g'li" turkumiga mansub dostonlarning ko'p tomliqi (1994-1997) nashrlari amalga oshirildi. Shundan so'ng o'zbek folklorini tadqiq etish jarayoni ham kengaya boshladi. Xuddi shu davrda Ergash Jumanbulbul o'g'lidan "Ravshan", "Kuntug'mish", "Alpomish", "Qunduz bilan Yulduz", "Dalli", "Xush keldi", "Avazxon", "Xasanxon" singari o'nlab dostonlar yozib olingan. Shoir ayniqsa "Go'ro'g'li" turkumiga kiruvchi dostonlarni zo'r mahorat bilan ijro etgan. Uning ijrosida yozib olingan "Ravshan" va "Kuntug'mish" dostonlariga biror lavhani qo'shish ham undan ajratib olish ham mumkin emas, deb ta'kidlaydi folklorshunos olim Omonulla Madayev. Ergash Jumanbulbul o'g'li mumtoz adabiyot ta'siridagi tuyuq janriga o'xshash to'rtliklar ham yaratgan:

Qo'lingdan kelgancha chiqar yaxshi ot,

Yaxshilik qil, bolam, yomonlikni ot.

Nasihatim yodingda tut, yolg'izim,

Yolg'iz yursa chang chiqarmas yaxshi ot.

Ergash Jumanbulbul o'g'li og'ir kasallikdan so'ng 1937-yil 12-may kuni olamdan o'tgan.

Xulosa qilib aytganda, baxshi-shoir xalqimiz tarixini ifoda etuvchi eposlarimiz va dostonlarimizni o'zida ifoda etgan folklorchilikka ulkan hissasini qo'shgan buyuk shaxslardan biri bo'lgan. Kelajak avlod uchun qoldirgan bu ulkan merosni biz avlodlar munosib asrashimiz va o'qib o'rganishimiz lozim.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. Shavkat Mirziyoyevning "Xalqaro baxshichilik festivali"da so'zlagan nutqidan. Qalampir.uz
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I том Т.–2006.– 680 б.
3. О. Madayev, Т. Sobitova. Xalq og'zaki poetik ijodi. Т. – 2010. 276 b.